



## ADVOKATURA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH:

### MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

**Sattarov Alisher Nurmaxammatovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada advokatura faoliyatini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba tahlil qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida advokatura rivojlanishi, kecha va bugungi holati o‘rganilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada advokatura o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan, shuningdek sud va tergovda advokat ishtirokining dolzarbligi haqida xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** advokatura faoliyati, advokat, litsenziya, guvohnoma, order, shartnoma, sud, himoya;

## KIRISH

Bugungi kun rivojlanayotgan dunyo hamjamiyatida advokatura asosiy va tayanch institutlaridan biri bo‘lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq konstitutsiyaviy vazifa yuklatilgan. Shu bois ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab sud-huquq tizimining ajralmas bo‘g‘ini, ya’ni advokatura institutini isloh qilish, uni inson, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi sohaga aylantirish, mustaqil tizimni barpo etishga alohida va doimiy ahamiyat berib kelindi. Buni muhtaram Prezidentimizning quyidagi so‘zlaridan ham anglasak bo‘ladi: “Odil sudlov, inson qadr-qimmat va huquqlari oliy qadriyat sifatida sud-huquq sohasidagi islohotlarimizning asosiy mazmuni bo‘ladi”.

## ASOSIY QISM



O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan to shu kungacha jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi sud-huquq tizimining ajralmas qismi bo'lgan advokatura tizimi ham to'xtovsiz ravishda rivojlanib bordi. Shu sababli O'zbekistonda advokatura institutining rivojlantirishi shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin desak mubolag'a bo'lmaydi.

I bosqich: 1990-1996 yillar

II bosqich: 1997-2007 yillar

III bosqich: 2008- 2016 yillar

IV bosqich: 2017 yildan hozirgacha bo'lgan davr.

1990-1996-yillardagi rivojlanish bosqichida advokatura O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 1980-yil 12-noyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston SSR Advokaturasi to'g'risida"gi Nizom asosida faoliyat yuritib keldi.

Mazkur nizomda advokatlik tuzilmalarining tashkiliy shakli sifatida Qoraqalpog'iston ASSR, viloyatlarda va Toshkent shahrida bittadan advokatlik hay'ati (kolleksiyasi)ni tashkil etish va yuridik yordam ko'rsatishni advokat hay'atining tumanlarda tashkil etiladigan yuridik maslahatxonalar orqali amalga oshirish belgilangan edi. 1997 yilga qadar hududlarda Advokatlar hay'atidan tashqari advokatlik tuzilmalari bo'lmagan.

1997 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 14 ta Advokatlik hay'ati (kollegiyasi) va tuman (shahar)larda jami 180 ta yuridik maslahatxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda faoliyat yuritgan advokatlar soni 1641 tani tashkil etgan.

O'zbekistonda advokatura instituti rivojlantirishining ikkinchi bosqichi 1996-2008 yillarga to'g'ri keladi. Rivojlanishning ushbu bosqichida advokatura tizimida amalga oshirilgan dastlabki islohotlarning huquqiy amaliy natijasi sifatida mamlakatimizda ilk bor 1996 yil 27 dekabrda



"Advokatura to'g'risidagi" , 1998 yil 25 dekabrda esa mazkur qonunning mantiqiy davomi sifatida "Advokatura faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. "Advokatura to'g'risida"gi qonunda advokaturaga huquqiy ta'rif berilib, fuqarolik jamiyatining alohida huquqiy instituti sifatida e'tirof etiladi.

1997 yil 1 iyul holatiga ko'ra, Respublikada 20 ta Advokatlar hay'ati, 42 ta Advokatlik firmasi va 80 ta Advokatlik byurolari tashkil etilgan bo'lib, ularda jami 2701 nafar advokat faoliyat ko'rsatgan.

2005 yil 1 yanvar holatiga ko'ra esa Respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan advokatlar hay'atlari soni 24 ta, advokatlik firmalari soni 178 ta, advokatlik byurolari soni esa 289 tani tashkil qilib, ularda 3032 nafar advokatlar faoliyat ko'rsatgan.

2007 yil 1 yanvar holati bo'yicha esa Respublikada jami 23 ta advokatlik hay'ati, 348 ta advokatlik firmasi va 438 ta advokatlik byurolari faoliyat ko'rsatib kelgan. Shu davrda jami 6238 ta shaxsga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya berilgan bo'lsa-da, shulardan 3834 nafari yuqorida qayd etilgan advokatlik tuzilmalarida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanib kelgan.

1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida" gi Qonunda advokatlik maqomiga ega bo'lish va undan mahrum bo'lish, advokatning intizomiy javobgarligi, advokatning protsessual vakolati, huquq va majburiyatlari, advokatning mehnatiga haq to'lash, kasbiy malakaga qo'yilgan talablar, kasbiy va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq barcha masalalar ilk bor alohida huquqiy norma ko'rinishida belgilab berildi.

Advokatura tizimini rivojlantirishning uchinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 mayda "O'zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan xarakterlanadi.



Mazkur farmon sud-huquq tizimining muhim sohalaridan biri hisoblangan advokatura institutini isloh qilishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Farmonda advokatura institutini yanada isloh qilishning quyidagi yoʻnalishlari belgilandi:

- advokaturaning oʻzini-oʻzi boshqaradigan markazlashtirilgan samarali tizimini yaratish;

- advokatlikka nomzod shaxslarning malakasiga nisbatan qoʻyiladigan talablarni kuchaytirish, ularning yuridik soha boʻyicha muayyan ish stajiga ega boʻlishi va advokatlik tuzilmalarida stajirovkani oʻtashi;

- advokatlarni majburiy ravishda kasbiy malakalarni oshirish tartibini joriy qilish;

- advokatlik tuzilmalari vakolatlari va huquqiy maqomini aniqlashtirish;

- advokaturani kasb mahorati yuqori darajada boʻlgan halol mutaxassis kadrlar bilan toʻldirishni taʼminlaydigan samarali litsenziyalash tizimini tashkil etish;

- jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligini taʼminlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish;

- huquqshunoslik sohasida maxsus bilimga ega boʻlmagan shaxslarning sud ishlarida ishtirok etishini cheklashga qaratilgan taraflar vakilligi institutini bosqichma- bosqich takomillashtirish;

- advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilishning samarali mexanizmni yaratish.

Shu davrga kelib amalda advokatlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan advokatlar soni ilgarigiga nisbatan bir muncha kamaygan boʻlsa ham keyingi yillarda ularning soni toʻxtovsiz oʻsib bordi. Xususan, 2013 yilda 3398 nafar, 2014 yilda 3557 nafar, 2015 yilda 3682 nafar, 2016 yilda 3872 ta, 2017 yilda 3946 nafar va 2018 yilning 6 oyida 3944 nafarni tashkil qildi.



2017 yildan boshlab advokatlik sohasida boshqa sohalarda bo'lgani kabi yangi davr boshlandi. Ya'ni buni ushbu tizim rivojlanishining IV bosqichi desak xato bo'lmaydi.

Ana shu yangi davrning birinchi qadami sifatida 2018 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini ko'rsatish mumkin. Ushbu istiqbolli farmonda so'nggi yillarda mamlakatimizda kuchli Advokatura tizimini barpo etish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar, ularning ijobiy natijalari e'tirof etilishi bilan birga Advokatura institutining bugungi kun talabi darajasida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham ko'rsatib o'tildi va sohani isloh qilish yo'nalishlari belgilab berildi.

Keyingi eng katta qadam sifatida 2022 yil 28 yanvarda qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi"ning qabul qilinishini aytish joiz bo'ladi. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining ikkinchi yo'nalishi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga asoslangan va bu orqali nafaqat sud-huquq sohasini isloh qilish balki Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatga bo'lgan talabini to'liq qondirish masalalari ko'rib o'tilib, qonunning 19-moddasida asoslab qo'yildi. Unda quyidagi normalar belgilab o'tilgan:

"Advokatura institutini to'laqonli o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish

Advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish.



Advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo'lga qo'yish.

Bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va "yagona darcha" tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash".

Mamlakatimizda Advokatura tizimini rivojlantirish bo'yicha islohotlar faqat yuqorida sanab o'tilgan farmon qabul qilish yoki taraqqiyot strategiyasini joriy qilish bilangina emas balki ularni amalda to'g'ri qo'llay olish bilan ham amalga oshirilmoqda.

Har bir davlatni rivojlantirish, uni isloh qilish hamda rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish uchun harakat qilinayotganda albatta kamchiliklar bo'lishi tabiiy hol. Bu kamchiliklarni hamma sohalar kabi advokatura tizimida ham uchratish mumkin.

Sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar sudlarning mustaqilligiga erishish va sudlarda fuqarolar manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan. Amaldagi protsessual tizimda advokaturaning roli yetarlicha baholanmaydi, natijada qarama-qarshilik tamoyili asosida qaror qabul qilish mumkin emas.

O'zbekistonda 5 mingga yaqin advokat faoliyat ko'rsatmoqda. Ular inson huquqlari himoyasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Advokatura zimmasiga jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishdek muhim konstitutsiyaviy vazifa yuklatilgan. Sud jarayonlarida himoya va ayblovlarning tengligini ta'minlash odil sudlovning muhim shartlaridan biridir. Ilgari Konstitutsiyada sud protsessining ayblovlarning tarafi hisoblangan prokuratura institutiga oid qoidalar alohida bobda batafsil berilgan, biroq advokaturaga oid qoidalar bir jumlada keltirib o'tilgan edi.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa advokaturaning maqomi yanada mustahkamlanib, hujjat “Advokatura” nomli 24-bob bilan to‘ldirildi Advokatura sohasining prokuratura singari Konstitutsiyada alohida bobda berilishi ularning konstitutsiyaviy maqomini oshirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan advokaturaga oid qoidalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Advokaturaning faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillariga asoslanishi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bunda, advokatura faoliyatining qonuniyligi, deganda advokatlik faoliyati faqat qonunga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi tushuniladi.

“Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasiga asosan, advokatning mustaqilligi unga qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijozat berish, bu faoliyatni to‘xtatib turish va tugatish, advokatning daxlsizligi, advokatlik sirini oshkor etishni talab qilishni man etish, advokat olib borayotgan ishlarga aralashganlik yoxud advokatning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik, davlat tomonidan unga advokatlik faoliyati kafolatlari berilishi hamda ijtimoiy himoyalaniishi orqali ta’minlanadi.

Advokaturaning o‘zini o‘zi boshqarish, deganda, O‘zbekistonda xususiy advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi advokatlar o‘z faoliyatini nodavlat kasbiy birlashma orqali boshqarishi, ularning boshqaruviga oid masalalarga davlatning aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi tushuniladi.

Bugungi kunda Advokatlar palatasi o‘zining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladigan hududiy boshqarmalari bilan birgalikda advokaturaning yagona o‘zini o‘zi boshqarish tizimini tashkil etadi.





Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 142-moddasiga asosan, advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan to'siqlarsiz va holi uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi. Advokatning kasbiy faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi kuchli advokatura tizimini yaratishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu qoida "hech bir idora advokatlarning faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart", degan g'oyaning konstitutsiyaviy ifodasidir. Ushbu norma sud protsessida advokat prokuror bilan tengma-teng munozaraga kirishishini ta'minlaydi. Ish bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etish faoliyatiga aralashmaslik natijasida advokaturaning huquqiy holati mustahkamlanadi.

Advokatlik faoliyatidagi erkinlik va kafolat ularning ishini yengillashtiradi, advokat himoya qilayotgan shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganlarni amalga oshirish uchun turli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Sohada zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb qilish maqsadida 2022 yil 30 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorga muvofiq advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ustuvor vazifalari belgilandi. Xususan,

-advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash maqsadida advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini samarali yo'lga qo'yish;





- advokatlar tomonidan maxsus axborot dasturi orqali jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bundan tashqari ushbu qarorga ko'ra, 2023 yil 1 yanvardan boshlab, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya berish, talabgor tomonidan malaka imtihonini topshirishining amaldagi tartibi saqlangan holda, "Litsenziya" axborot tizimi orqali amalga oshirilishi va rasmiylashtirilishi belgilandi.

2023 yil 1 fevraldan boshlab, advokatlik tuzilmalari tomonidan advokatlarga muayyan ishni olib borish uchun beriladigan an'anaviy shakldagi order maqomiga teng bo'lgan maxsus QRkod qo'yilgan "Elektron advokatlik orderi"ni berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yuqoridagi turli yillar davomida mamlakat hududida advokatlar sonining statistikasiga qaytadigan bo'lsak, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida 2023 yil aprel oyida ushbu ko'rsatkich 4625 nafarni tashkil etganligi aytib o'tilgan. Bu ko'rsatkich O'zbekiston aholisini hisobga oladigan bo'lsak, juda past.

Zamon rivojlangani va sohada yangilanishlar tatbiq etilayotganligini hisobga olgan holda, advokatura sohasini yanada isloh qilish, advokatlarning huquqiy maqomini yuksaltirish borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. 2023 yilning o'tgan davri mobaynida xalqimiz hayotida muhim voqea – "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini bo'lib o'tdi. Referendum natijalariga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi. Ushbuga ko'ra, Konstitutsiyaga advokatura sohasi uchun alohida bob va tegishli moddalar kiritildi. Bu bilan "advokaturaning konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatidagi maqomi yanada oshirildi..." desak mubolag'a bo'lmaydi.



Advokatura chinakam mustaqil tuzilmaga aylana olishi uchun soha rivojiga to'siq bo'layotgan g'ovlarni olib tashlash, sohaga yangiliklarni olib kirish muhim deb hisoblayman.

Quyidagi masalalarni hal etish orqali, sohani yanada rivojlantirish mumkin deb o'ylayman:

birinchidan, "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra, notarius sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlari yurituvida bo'lgan ishlar bilan bog'liq notarial harakatlarni amalga oshirganlik to'g'risida ularning talabiga binoan ma'lumotnomalar (ma'lumotlar) berishga majbur ekanligi ko'rsatilgan. Biroq, ushbu ro'yxatda advokatlar yo'q. Bu esa ularning fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishlarida zarur axborotni moneliqsiz olishlariga to'siqlardan biri desak bo'ladi;

ikkinchidan, advokatlarning turli tashkilotlarga yo'llayotgan so'rovlari ko'p hollarda, davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda. Qonunchilikda advokat so'roviga bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborotni taqdim etganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Umumiy asoslarga ko'ra javobgarlikka sabab bo'lishi ko'rsatilgan xolos. "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksda deputatlik, senatorlik so'rovlariga javob taqdim etmaganlik uchun javobgarlik belgilanganidek, advokat so'roviga bepisandlik ham shunday huquqbuzarlik deya e'tirof etilib, javobgarlik belgilanishi kerak.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, advokatura instituti fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida mustaqil tuzilmaga aylana olishi uchun unga yanada keng sharoitlarni yaratish, ushbu sohaga jahon amaliyoti tajribalarini tatbiq etish zarur.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri 30.04.2023)//  
<https://www.lex.Uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. 31.08.2022yil.  
[www.kun.uz](http://www.kun.uz)
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 06.11.2021 yil. [www.yuz..uz](http://www.yuz..uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2022 yil 30 may.
5. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni. 27.12.1996
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 01.05.2008 yil
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 12.05.2018yil
8. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/>
9. [www.sud.uz](http://www.sud.uz)
10. [www.paruz.uz](http://www.paruz.uz)
11. [www.uz.undp.org](http://www.uz.undp.org)
12. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
13. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)